

### III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 32 030,4 mlrd. so‘mni yoki 2020- yilning mos davriga nisbatan 104,5 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 31 220,6 mlrd. so‘mni (104,6 %), o‘rmon xo‘jaligi - 621,5 mlrd. so‘mni (102,6 %), baliqchilik xo‘jaligi - 188,3 mlrd. so‘mni (102,6 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Andijon viloyatining ulushi 10,1 % ni tashkil etdi.



32 030,4

Andijon viloyati bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik  
xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so‘m

01



31 220,6

Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu  
sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar

02



621,5

O‘rmon xo‘jaligi


03




188,3

Baliqchilik xo‘jaligi

**Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot  
(xizmat)lar hajmining oʻsish surʻati**




**Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining  
taqsimlanishi, % da**



2021- yilning yanvar-dekabr yakunlariga ko'ra, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 104,6 foizi dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlarga, 102,6 foizi - o'rmon xo'jaligiga, 102,6 foizi - baliqchilik xo'jaligiga to'g'ri keladi.


### Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Bo'ston (1 726,1 mlrd. so'm) va Ulug'nor (1 359,1 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Andijon tumani (1 853,1 mlrd. so'm), Andijon shahri (824,1 mlrd. so'm)ni keltirib o'tish mumkin.

Viloyat ko'rsatkichidan (104,5 %) yuqori o'sish sur'atlari Bo'ston (109,8 %) va Ulug'nor (107,2 %) tumanlarida kuzatildi. Andijon shahrida (100,7 %), Andijon (100,2 %) tumanida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.


## Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'atlari




### Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 30 785,8 mlrd. so'mni yoki 2020- yilning mos davriga nisbatan 104,2 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari - 19 053,5 mlrd. so'mni (103,0 %), chorvachilik mahsulotlari - 11 732,3 mlrd. so'mni (106,3 %) tashkil qildi.


### Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va chorvachilik ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ulushi



**Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari  
hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)**




**Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida  
dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi**



Xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 5,0 foizi - dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 62,9 foizi - fermer xo‘jaliklariga, 32,1 foizi - qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

**Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha  
xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi, % da**



■ Fermer xo'jaliklari

■ Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

■ Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Marhamat tumanida (110,6 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Jalaquduq tumanida (101,9 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Oltinko'l tumanida (1 788,4 %) qayd etildi.


Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Ulug'nor tumanida (98,1 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng kam ulushi Qo'rg'ontepa tumanida (98,7 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Buloqboshi tumanida (76,7 %) qayd etildi.

## Dehqonchilik


2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 19 053,5 mlrd. so'mni yoki 2020- yilning mos davriga nisbatan 103,0 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 61,9 % ni tashkil qildi.

### Donli ekinlar


**Hajmi, ming t.**



**O'sish sur'ati**



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari



● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




**Hududlar bo'yicha donli ekinlar yetishtirish hajmi, ming t.**



## Sabzavotlar




### **Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




2021- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 645,2 ming tonna sabzavotlar (2020- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 102,1 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 58,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.


### **Hududlar bo'yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, ming t.**



## Kartoshka




**Ishlab chiqarilgan mahsulotning  
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**





2021- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 396,6 ming tonna kartoshka (2020- yilning yanvar-dekabrga nisbatan 105,5 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Kartoshka mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, kartoshka mahsuloti umumiy hajmidan 70,7 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.


**Hududlar bo'yicha kartoshka yetishtirish hajmi, ming t.**



## Poliz



### Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



● Fermer xo'jaliklari


● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar




2021- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 178,7 ming tonna poliz (2020- yilning yanvar-dekabrga nisbatan 105,5 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Poliz mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, poliz mahsuloti umumiy hajmidan 69,2 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.

### Hududlar bo'yicha poliz yetishtirish hajmi, ming t.




## Mevalar va rezavorlar


**Hajmi, ming t.**



**O'sish sur'ati**



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



● Fermer xo'jaliklari

● Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari

● Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar





2021- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 657,5 ming tonna mevalar va rezavorlar (2020- yilning yanvar-dekabrga nisbatan 103,7 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Mevalar va rezavorlar mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, mevalar va rezavorlar mahsuloti umumiy hajmidan 67,1 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.


**Hududlar bo'yicha mevalar va rezavorlar yetishtirish hajmi, ming t.**



## Uzum




### Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 80,9 ming tonna uzum (2020- yilning yanvar-dekabrga nisbatan 105,3 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Uzum mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, uzum mahsuloti umumiy hajmidan 49,4 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.

### Hududlar bo'yicha **uzum** yetishtirish hajmi, ming tonna




## Chorvachilik




2021- yilning yanvar-dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 11 732,3 mlrd. soʻmni yoki 2020- yilning mos davriga nisbatan 106,3 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 38,1 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish boʻyicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam koʻrsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining koʻpayishiga, ichki isteʼmol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan toʻldirishga imkon yaratdi.




2021- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan tirik vaznda 178,3 ming tonna goʻsht (2020- yilning yanvar-dekabrga nisbatan 113,5 % ga koʻp), 990,5 ming tonna sut (101,3 % ga koʻp), 72,4 mln. dona tuxum (100,8 % ga koʻp) va 17 662,8 tonna baliqchilik (101,4 % ga koʻp) ovlandi.

### Go'sht (tirik vaznda)




### Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi





2021- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 178,3 ming tonna go'sht (2020- yilning yanvar-dekabrga nisbatan 113,5 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Go'sht ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmidan 81,2 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.


### Hududlar bo'yicha go'sht (tirik vaznda) yetishtirish hajmi, ming tonna



## Sut



### Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar





2021- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 990,5 ming tonna sut (2020- yilning yanvar-dekabrga nisbatan 101,3 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Sut ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut ishlab chiqarish umumiy hajmidan 93,1 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.


### Hududlar bo'yicha ishlab chiqarilgan **sut** hajmi, ming tonna



## Tuxum




### **Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




2021- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 724,2 mln. dona tuxum (2020- yilning yanvar-dekabrga nisbatan 100,8 % ga ko'p) ishlab chiqarildi. Tuxum ishlab chiqarish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 75,3 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.

### **Hududlar bo'yicha olingan tuxum hajmi, mln. dona**




## Baliq


**Hajmi, tonna**



**O'sish sur'ati**



**Ishlab chiqarilgan  
mahsulotning xo'jalik toifalari  
bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**




2021- yilning yanvar-dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 17 662,8 tonna (2020- yilning yanvar-dekabrga nisbatan 101,4 % ga ko'p) baliqchilik ovlandi. Ovlangan baliqchiliklar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliqchilik umumiy hajmidan 56,0 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.

**Hududlar bo'yicha ovlangan baliq hajmi, tonna**



## Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2022- yining 1- yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,1 foizi fermer xo'jaliklari hissasiga, 93,2 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,7 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 5,5 foizi fermer xo'jaliklariga, 93,8 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,6 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, otlar umumiy sonidan 21,2 foizi fermer xo'jaliklariga, 77,4 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 1,4 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi. Shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 19,4 foizi fermer xo'jaliklariga, 65,9 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 14,7 foizi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.


2022- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1 103,4 ming taga yetdi.

2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni - 1 066,3 ming taga (103,5 %) ko'paydi.

### Yirik shoxli qoramollar



### **Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 93,2 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.


### **Hududlar bo'yicha yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni, ming bosh**




2022- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, sigirlarning umumiy bosh soni 380,4 ming taga yetdi.

2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda sigirlar bosh soni - 367,3 ming taga (103,6 %) ko'paydi.

### Sigirlar



### **Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, sigirlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 91,9 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.


### **Hududlar bo'yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh**




2022- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 1 490,8 ming taga yetdi.

2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'y va echkilar bosh soni – 1 450,6 ming taga (102,8 %) ko'paydi.

### Qo'y va echkilar



### **Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, qo'y va echkilar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, qo'y va echkilarning 93,8 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.



### **Hududlar bo'yicha qo'y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh**




2022- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, otlarning umumiy bosh soni 7 084 taga yetdi.

2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda otlar bosh soni - 6 782 taga (104,5 %) ko'paydi.

### Otlar



### **Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, otlar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, jami otlarning 77,4 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzaitildi.



### **Hududlar bo'yicha otlarning umumiy bosh soni**




2022- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, parrandalarning umumiy bosh soni 8 590,8 ming taga yetdi.

2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo'jaliklarda parrandalar bosh soni - 8 390,2 ming taga (102,4 %) ko'paydi.

### Parrandalar



### **Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**



- **Fermer xo'jaliklari**
- **Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari**
- **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**



2022- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, parrandalar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil etilganda, parrandalarning 65,9 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

### **Hududlar bo'yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh**

